

## **Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatida milly cholg'ular tarixi**

*O'zbekiston Davlat Konservatoriysi*

*Nukus filiali "Umumiy kasbiy va social-gumanitar fanlar"*

*kafedrasи "Musiqashunoslik" mutaxassisligi 1-kurs*

*Talabasi Madrimova To'xtajon*

*Ilmiy rahbar Kamalova Gulmaryam Maksedullaevna*

**Annotatsiya** Ushbu maqolada ozbek xalq cholgularning shakllanish tarixi va musiqiy merosimizda tutgan orni haqida fikr yuritilgan. O'rta asrlarda mavjud bo'lgan xozirgi kungacha voydalanib kelinayotgan cholg'ularning nomlari va ular xususida malumotlar keltirib otilgan.

**Kalit so'zlar:** Milliy cholgular, tarixiy qo'lyozmalar, musiqiy risolalar, etnograf, tarix, kopelmeyster,

**Аннотация** В трех статьях рассматривается история становления и музыкальное наследие узбекских народных инструментов. В нем даны названия инструментов, существовавших в средние века и на которых играют до сих пор, и дана информация о них. Выстрелил

**Ключевые слова:** Национальные музыкальные инструменты, исторические рукописи, музыкальные трактаты, этнограф, история, копельмейстер

**Abstract** This article talks about the history of the formation of Uzbek folk instruments and their place in our musical heritage. Names and information about musical instruments that existed in the Middle Ages and are still played today shoot

**Key words:** National musical instruments, historical manuscripts, musical treatises, ethnographer, history, kopelmeister

O'zbek va qoraqalpoq xalqi qadimiylar boy musiqiy merosga ega bo'lib, bunda musiqiy cholg'ularning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Musiqiy cholg'ular xalqimizning moddiy hamda beqiyos ma'naviy boyligi hisoblanadi.

Chunki, har bir xalqning o'z milliy merosi, davrlar osha yuzaga kelgan an'analari, va qadriyatlarini milliy ohanglar orqali tarannuim qiladigan milliy cholg`ulariga egadir.

O'zbekistonda ijrochilik amaliyotida foydalanib kelinayotgan milliy musiqa cholg`ularining 30 tadan ortiq turlari mavjud. Shulardan 18 nomdagि musiqiy cholg`ular XX asrning 40-yillaridan keyin professor A.I.Petrosyans boshchiligidagi bir guruh mutaxassislar va soz ustalari bilan hamkorlikda takomillashtirilgan musiqiy cholg`ular bo'lib, konsert sahnalarida yakkanavozlik sifatida, shu bilan birga asosan orkestr va ko'p ovozli ansamblarda foydalanish uchun mo'ljallangandir. Bu muqaddam mavjud bo'lgan milliy musiqiy cholg`ularning shaklini yiriklashtirish yoki kichikroq ko'rinishga keltirish asosida yaratilgan bo'lib, o'sha cholg'u oilasini yaratish ustida olib borilgan tajribalar edi, natijiada nay, chang, rubob, dutor, g'iljjak cholg `ularining oilasi dunyoga keldi.

Qayroq - Markaziy Osiyo xalqlari o'rtasida tarqalgan urma musiqa cholg`ularidan biridir. (S.Saidiy.milly cholg`ular tarixi; idiofonlar 250 ming yillik tarixga ega).

Bir-biriga urilib chalinadigan asboblardan - qayroq, yog'och qoshiq, qo'ng'iroqchalarni (raqsga tushganda qo'l va oyoqlarga kiyiladi) eslatib o'tish mumkin. Qayroq, suv bo'ylaridan topiladigan silliq va yupqa tosh qayroqchalardir Raqqos va raqqosalar o'ng va chap qo'llariga juft-juft qayroqlarni ushlab, musiqa usullarini chertib, o'z raqslarini bezatib, jilo beradilar. Qayroqda ijro etishning qulayligi uchun qayroq jufti yupqa temirlardan bo'ladi. Shunda qayroqlar raqqoslarning qo'llaridan tushib ketmaydi.

O'zbekistonda raqlar nomma-nom ataladi, jumladan katta o'yin, zang o'yini, nog'ora-doyra o'yinlari qatorida qayroq o'yini ham keng tarqalgan Ayniqsa, Xorazmda hozirgi davrda ham yaxshi qayroqchi raqqosa va raqqoslar bor. Juma qayroq, Ergash qayroq kabi qayroqchilar, Tamaraxonim hamda Qori Yoqubov ansambllarida birga faoliyat ko'rsatib, ular bilan birga ijodiy safar qilib, dunyo kezganlar, ushbu konsertlarda o'zbek milliy qayroq raqlarini namoyon qilishgan.

Safoyil, O'zbekiston, Tojikiston va Xitoyda urma keng tarqalgan shiqildoq tuzilishidagi cholg'u asbob. Safoyil ikki bo'lak qattiq yog' och kaltakchadan iborat. Bu kaltakchaga ikkita temir aylanaga mayda temir halqachalar o'rnashtirilgan. Safoyilni silkitib, yelkaga urib, shovqinli, turli murakkab tovush chiqariladi. Bu cholg'u, Qashqar va Guljadan O'zbekistonga kirib kelgan. Safoyil uyg'ur xalqining milliy cholg'ularidan bo'lib, tushganda erkak raqqoslar qo'lida yelkaga urib chalinadi. Ijro etilayotgan musiqa usuliga moslaydi. Safoyil ko' proq raqlarda qo'llaniladi. Uyg'ur xalqining sho'x qo'shiqlari, raqlaridan xabardormiz. Shu raqs turlaridan biri yigit va qiz raqsidir. Raqs duetida albatta yigit qo' 'lida safoyil bo'ladi va uni zo'r joziba bilan ishga soladi. O'zbekistonlik uyg'ur sozandalar ansambllaridan safoyil cholg'usi mustahkam o'rin olgan.

Changqobuz, Changqovuz ikki lab orasiga qo'yilib, o'ng qo'l barmoqlari bilan chalinadigan cholg'u. Temirdan qilingan aylanma ramka oralig'iga po'lat o'ratilgan bo'ladi, chalganda barmoq bilan tilni harakatga keltirilib to'lgirlantiriladi. Og'iz bo'shlig'i tovush beruvchi rezonans xizmatini bajaradi va oktava hajmi oralig'ida tovush beradi. Uyg'ur xalqining sho'x qo'shiqlari, raqlaridan xabardormiz. Changqovuz metalldan tayyorlangan Juda sodda cholg'u bo'lib, sozandan yuksak ijro mahoratini talab qilmaydi. Bundan tashqari, changqovuzda kuy ijro etish imkoniyati ham nihoyatda chegaralangan. Bu azaldan ayollar cholg'usi hisoblanib kelgan. XX asrning 1960-yillariga qadar O'zbekistonning deyarli ko'p joylarida ayollarning eng keng tarqalgan musiqiy cholg'usi bo'lgan. Changqovuz turkiy qabila xalqlarining barchalarida, shuningdek, slavyanlarda va hatto, roman-german xalqlarida ham uchraydi. Hozirda changqovuzning eng mohir erkak ijrochisi Surxondaryolik Juma Abrayqulov hisoblanadi. Shuningdek Nog'ora - urib chalinadigan o'zbek xalq cholg'ularidan. Nog'ora sopoldan yasalib, ustiga echki yoki kiyik terisi qoplanadi. Nog'oraning ko'pincha ikkitasi chalinadi; hajmi jihatidan birinchisi ikkinchisiga nisbatan kichikroq bo'ladi. Nog'ora ma'lum bir sozga ega emas. Shunga ko'ra, tovushi ham aniq bir. balandlikda emas. Nog'oralardan birinchisi (kichigi) bak ya'ni baland, ikkinchisibum, ya'ni past tovush beradi. Nog'ora olov yoki oftobda

izdirilib, tovushi va balandlashtiriladi. Turli bayram, sayil ko'pchilik to'plangan yig'ilishlarda katta Nog'ora ishlatiladi. Buni ko's nog'ora deb atashadi. Nog'ora tuvaklarining teri tortilgan qismiga maxsus cho'plar bilan urish natijasida musiqiy usul hosil qilinadi Nog'oraning sadosi juda kuchliligi uchun ham undan fagat ochiq havoda ijro etiladigan karnay-surnay, doyra cholg'ulari bilan birgalikdagi ansambl tarkibida foydalanishadi. Nog'orada asosan ikkita tovush (bak va bum) bo'lgani uchun ham uning notalari bir chiziqda yoziladi. Doyra (o'zb. dapp, chidirma, chirmanda) - o'zbek, tojik va uygur xalqlari orasida keng tarqalgan, tovush balandligi noaniq urma cholg'u asbobdir. Diametri taxminan 400 mm, gardishi ilgarilari uzum zangidan qilingan, so'nggi vaqtarda yog'ochni egib yoki kichik yog'och bo'lakchalarini bir-biriga ulab yasalmoqda. Doyra gardishiga buzoq yoki baliq terisi goplanadi qirqdan ortiq halqachalar taqilib, bular doyrani chalganda qo'shimcha sado beradi. Doyrada ikkita asosiy tovush bor. Biri past <bum> ikkinchisi baland <bak> Ketma-ket kelgan ikkita qisqa tovush <bakko> yoki <bachka> (<tak-tak>) yoki <baka> (<taka>) deb yuritiladi. Doyra keng tarqalgan cholg'ulardan bo'lib, unda turli ansambl, orkestr va yakka holda ijro qilinadi. Doira jo'rligidagi raqslar o'zbek va tojik xalqlari orasida juda keng tarqalgan. Doyra tovushlari notada bir chiziqqa yoziladi. Shuningdek Qoraqalpoq xalqi ham ozining yuzdan ortiq dostonlari, mingdan ortiq buyuk baxshi, jirovlar, ko'plap cholg'u asarlari, saksondan ortiq musiqiy cholg'ulariga ega ma'naviy, ruxi boy xalq hisoblanadi. Buyuk kompozitor, ijrochi sozandalardan bo'lgan Jiyen, Xalmurat, Shanqay, Nurabilla, Aqimbet, Musa, Su'yeu, Shernazar, Juman, Jumanbu'lbu'l, Bekmurat Jorabay uli, Aytjan, Ibrayim, Arzi, Orinbay, Esjan, Japaq, Qarajan, Qudaybergen, singari baxshi ismlari xalq orasida saqlanib qolgan.

O'rta Osiyoda yashovchi turkiy xalqlar orasida Qoraqalpoq xalqining ham o'ziga xos bo'lgan adabiyoti, san'ati, madaniyati va musiqa asboblari tarixiga ega. Qadim zamonlardan beri Alamoynoq, Qobiz, , milliy Gijjak chanqovus cholgu asboblari Qoraqalpoq xalqi orasida keng tarqalib, sekin astalik bilan rivojlanib, xalqning estetik talablariga javob berib kelgan. Qoraqalpoq xalqining qadim zamonlardan buyon paydo bo'lib, vaqt o'tishi bilan sekin asta rivojlanib, xalqning

estetika talablariga javob beradigan birqancha cholg'ular mavjud. Umuman olganda ular Orta Osiyo xalqlari cholg'ularining bichimi, tuzilishi va ijro etish usullari bo'yicha juda ham bir-biriga o'xshashdir lekin qoraqalpoq xalq cholg'ularining ijro qilish texnikasi (ayniqsa dutor alamoynaqda) judaham boy zARBilrga ega. Qoraqalpoq xalgi orasidan judayam keng tarqalgan cholg'ulardan eng qadimgisi "Qobuz" cholg`usi bo'lib hisoblanadi. Qobuz qoraqalpoq, qozoq, qirg'iz xalqlarining eng qadimgi musiqa asbobi bo'lib qozoqlarda u qilg'obuz deb ham yuritiladi. U hozirga davrgacha jirovlarning ijro qilib keladigan cholgusi hisoblanadi. Entsklopediyalik malumotlarga qaraganda qobuz taxminan VI asrda paydo bo'lgan. Uning yuzaga kelishi ana shu davring qol yozma adabiyotlari, doston va donolik so'zlaridan, musiqa va cholg'u asboblarining, shu bilan birga cholg'u asboblarining yaratilishiga katta hissa qo'shgan shoir, sozanda va kompozitor Qorxit otaning nomi bilan bogliq bolgan. Bugungi kunga kelib Qorxit ota tomonidan yozilgan poemalari, u tog'risida og'izdan - og'izga o'tib saqlanib kelinayotga hikoyalar dostonlar guvohi bola oladi. Qobuz o'zining tuzilishi bo'yicha juda oddiy va ijro qilish texnikasi chegaralangan hisoblanadi. Ana shu davrlarning talabiga binoan qobuzning gavda qismi jiyda yog'ochidan, pastki qismi esa tuyaning yoki yosh buzoqning terisi bilan qoplanib torlari va kamoni otning yolidan yasalgan bo'ladi. Qobuz asosan ikki qisimdan ulangan bo'ladi: Gavda va dasta qismlardan iborat. Gavdasi daraxt yaprog'i shaklida pastga qarab yo'naltirilgan bo'ladi, gavdasining orta qismi oyilgan bo'lib pastki qismi teri bilan qoplangan bo'ladi. Teri avval nam holda tortilib quriganidan keyin mahkam tortilib turiladi. Terining ustki qismida suv qovoqda yasalgan xarrak joylashtiriladi va xarrak ustiga ikki tor tortiladi, ular dastaning bosh qismiga joylashtirilagan quloqchalarga ulanadi va shu orqali sozlanadi. Torlarning kerakli joylarida barmoqlarni bosish bilan va kamonni tortish orqali tebranish hosil qilish bilan har hil balandliklardagi tovushlar chiqarilib asarlar ijro etiladi. Kamon torlarni tebranishga keltiradigan quroq bo'lib, u qattiq yog'ochdan (jiyda, orik) yasaladi. Yog'ochga otning yolidan ingichgaligi 1sm bo'lgan bir tutam qil tortiladi. Kamonning qilini oziro namlab u bilan torlarni bir biriga ishgalash orqali

tebranish hosil qilinadi. Bu tebranishdan musiqa ovozlari paydo bo 'ladi va xarakat orqali teridan tebralish hosil qiladi. Terining tebranishi gavdaning shuqirchasi orqali yogon ovoz hosil qiladi. Qobuzning ovozi past (yirik) ovoz bo'lganligi uchun sultanatli, hatarli, hayol qilish sezgilarini eshituvchida uyg'otadi. Jirovlar qobuzni chalganda ong qoli bilan kamonni ushlab, chap qoli bilan torlarni bosish orqali musiqa asarlarini ijro qiladi. Qobuzning tutash va bir biriga ulangan turlari mavjud. Ulangan qobuzning gavdasi va dastasi qisimlarga ajratilib gavda qismidagi chuqirchaga joylashtirish orqali qobuz yig'iladi. Qobuzning bu turlari jirovlarning el oralab ot ustid yurganda uning xaltachasiga joylashtirish uchin moslanib yasalgan. Qobuz kvartaga sozlanada, lekin ovozlarning baland pastligi jirovlarning ovozining baland pastligiga bog'liq bo'ladi. Qobuzning diapozoni bir yarim oktavagacha bo'ladi. U asosan jirovlar ijro qilgan qoshiq va jir tolgovlarga, dostonlarga qoshilib ijro qilinadi. Lekin qobuzga moslangan yakka sozlar ham uchrashadi. Qobuz cholgusi asrlar davomidamoslangan yakka sozlar ham uchrashadi. Qobuz cholgusi asrlar davomida ozining oddiy, soda ko'rinishiga qaramasdan xalqimizning estetikalik talablariga loiqbo'lith kelmoqda. Songi yillarda qobuz cholg'usi qayta modernizatsiyalanib chiqildi va natijasiga ko`ra uning torlari torttaga kopaytirildi va ovoz chiqarish imkoniyatlari ortib, jro qilish texnikasi yanaham kopaydi. U xalq cholgulari orkestoriga kiritilib alohida sozanda sifatida cholg`ular qatoriga qoshildi.

Qoraqalpoq musiqa asboblari yorqin oziga xosligi bilan ajralib turadi. Ularning orasida yanabir eng mashhur cholg'ulardan bu Dutor (Alamoynaq duwtari) bo'lib hisoblanadi. Bu cholgu "Qoraqalpoqlarda XV asrning oxiri, XVI asrning boshlarida keng tarqalganligi hagida taxminlar mavjud. Ushbu davrlarda qoraqalpoq dutori ikki xil korinishda yasalgan. Birinchi korinishi pardasiz, ikkinchi korinishi esa pardali bo'lgan' deb manbaalarda keltirb otilgan Dutor sozi forsi tildan olingan bo'lib "du"-ikki "tor"-tor (sim) yani "ikki torli cholgu' degan manoni anglatadi. Bu cholguuning yasalishi asosan ikki usuldan iborat bo'litb: birinchisi yib yasaladigan, ikkinchisi bir biriga ulangan (qurama) dutor

hisoblanadi. Odatda dutor tut yoki orik yogochlaridan yasaladi. Dutorning ustidagi qopqog'lari qanchalik yupqa va mustahkam bo'lsa shunchalik darajada jarangdor bo'ladi. Qoraqalpoq dutorlariga suyakdan naqshlar bilan ishlov berilgani tufayli uni "Alamoynaq dutor"" deb ataydi. Dutorning dastasiga qoyning ichagidan tayyorlangan 12 parda oratilib u xromatik tuzilishga ega. Aynan dutorda 12 ta parda bo'lishi kerak deb korsatilmagan sababi u baxshining o'z ijro ilishi ovoz diapozoniga qarab ko'payib yoki kamaytirilib yasalgan. Dutor cholg'usining diapozoni 1,5 oktavagacha bo'lgan. Uning tuzilishi ikkita qulog'i, dastasi ikki qulqadan dastasi bo'ylab joylashgan pardalardan, ikki tor va shu ikki torni kotarib turadigan xarrakdan iborat Shu bilan birga ovoz chigarib turivchi chanoqlari yuzasi yupqa taxta bilan qoplanib, unda qopqoq teshikchalari boladi va bu teshik "ovozi chiqaruvchi teshik hisoblanadi. Umuman olganda, dutor baxshi (lirk sherlar qoshiqchisi)ning tabiiy jon yoldoshi hisoblanadi. Qoraqalpoqning uch torli milliy g'ijak cholgusi dutorning hamrohi hisoblanadi.

G'ijak Azarbajjon, O'zbek, Turkman, Tojik, Uyg 'ur va Qoraqalpoq xalqlarining orasida keng tarqalgan torli-kamonli cholg'u asbob hisoblanadi. Turkmanlar .va ozbeklarning musiqa folklor tadqiqotchilari V.A.Uspenskiy va V.M.Belyaevning aytishlariga qaraganda g'ijak XIX asrning oxirlarida azarbajjonlardan otgan va keyinchalik goshni qoraqalpoq xalqiga kirib kelgan degan tahminlar mavjud. Sababi XIX-XX asrlarda Qoraqalpoq, ozbek va turkman baxshilari el orasida yu'rib o'zlarining san'atini va mohirona. Adabiyot, madaniyat va qoshni xalqlarning ta'siri ostida asta sekinlik bilan rivojlanadi. G'ijjak asosan baxshilarga va boshqa cholg'ular bilan goshilishib jornovoz sfatida ij ro gilinadi. Shu bilan birga g'ijak uchun yozilgan birqancha asarlar ham bor. Tuzilishi bo'yicha g'ijak asli ikki qisimdan iborat: Qovoqdan yoki yog' yog'ochdan yasalgan kosaxonasi va dastadan iborat. Kosaxonasining ichi oyilgan bo'lib bir tarafi kesilgan bo'ladi va unga balig terisi tortiladi. Dastasining boshiga uchta qulig ornatiladi, ularga uchta sim tortilib sozlanadi. Torlarini terini ustiga qoyilgan xarrak kotarib turadi. Simlar kamon orqali tebranish hosil qiladi, kamon egilgan qattiq yog' ochdan yasalgan bolib unga otning dum yolidan qil tortiladi

Kamonning uzunligi ikki qarishga yaqin bo'ladi, g\*'ijjakning Mi, Lya, Re simlari kvartaintervaliga sozlanadi Barcha simlari dutorning ovozlariga qaraganda bir oktava yuqori sozlanadi, bunday sozlash g'ijakda asarlarni dutorga qgoshib ijro gilganidaqulay bo'ladi. G'ijakning diapozoni ikki oktava atrofida bo'ladi. Ijro etish maxorati tarafidan g'ijjak yuqori ivojlanganmusiqa asbobi. Gijjakning har hil bezaklari erkin jro qilinadi. G'ijak cholgusi qayta modernizatsiya qilinib simlari soni tortta bolib xalq cholgular orkestori tarkibiga kiritildi. Bugungi kunda qoraqalpoq milliy cholg'ularining ko'pchiligi saqlanib, xalg orasida milliy boyligimiz va beba ho boyligimiz sfatida yuqori darajada asrab kelinmoqda Mamlakatimiz va xalqimiz kelajagi bo'lgan yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalash uchun bugungi kunda koplab san'at sohalari qatorida milliy cholg'u ijrochilik san'atining asl o'zagini bilish, uning millat ko'zgusi ekanligini anglash borasida magolamiz mavzusi dolzarb ahamiyat kash etadi. Shuningdek, bugungi kunda ijrochilik san'ati bilan shugullangan barcha san'at ahli uchun, ayniqsa musigiy ta'lim sohasidagi mutaxassislar, ilmiy tadqiqot bilan shug`ullanuvchi sozandalar uchun ijrochilik san'ati tarixi va uning taraqqiyot bosqichlarini o'rganish, milliy cholg'ularimiz tub kelib chiqishida yuz tutgan o'zgarishlarni bilish, kelgusida bu cholg'ularni yanada takomillashtirish borasida hamda, o'sib kelayotgan yosh avlodga milliy cholg'u ijrochilik asoslarini to'g'ri tushuntirib borishda mazkur masala o'z dolzarbligini belgilaydi.

### **Foydalangan adabiyotlar**

Jamil Charshemov. (2024). PROCESSES OF REALIZATION OF KARAKALPAK FOLKLORE IN SYMPHONIC MUSIC OF 30-80 YEARS OF XX- CENTURY. Web of Teachers: Inderscience Research, 2(1), 33-36. PROCESSES OF EALIZATION F KARAKALPAK FOLKLORE IN SYMPHONIC MUSIC OF 1990-2010 OF XX-XXI CENTURY. (2024). Western European Journal of Modern Experiments and Scientific Methods, 2(1), 37-41 5. Charshemov J. Problems of Using Karakalpak Folklore in Composers //Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences. - 2023. T. 2. - Ne. 3.- C. 270-273.

## ***Modern education and development***

---

Charshemov J. A REVIEW OF MARKABAY JIEMURATOV'S WORK //Modern

Science and Research.-2023.-T. 2. - Ne. 10.- C. 818-821. 7. apmeMOB . AETIA I O HOBEP EDOPMATOPJINTM //TADQIQOTLAR. UZ. - 2024. - T. 33. - Ne. 2. - C. 20-25. 8. Charshemov J. XVI-XVII ASRLARDA BALETNING YEVROPADA KLASSIK RAQS TURI SIFATIDA RIVOJLANISHI //BeCTHNK My3bIK n ncKyccTBa. - 2024. - T. 1.- No. 3.- C. 22-27.

Charshemov J., Muratbaeva R. JAÑA RUXTAGI XALIQ QOSIQLARI //BecTHnk My3bIkH H ckyccTBa. -2024. -T. 1.- Ne. 3.- C. 16-21, 10.

Charshemov J., Orazalieva G. BAROKKO DÁWIRINIŃ GARMONIYASÍ //Becthhk My3bikh n nckyccTBa. - 2024. - T. 1. - No. 3. - C. 49-53. 11.

Orazaliyeva G. THE CREATIVE PATH OF AMET TAKHIROV //Modern Science and Research. -2023. - T. 2. - No. C. 188-191. 12. Abdikarimova I.,

Kamalova G. KARAKALPAK FOLKLORE //Modern Science and Research. - 2024. - T. 3. -- No. 2. - C. 1237-1239. 13. Ulzada O., Kamalova G. M.

QARAQALPAQSTANDA OPERA JANRINIŃ RAWAJLANIWI //OEPA3OBAHHE HAYKA I THHOBAIINOHHBIE NIEN B MMPE. -2024. - T. 37. - No. 2.- C. 36-40.

. Madrimova T., Kamalova G. M. TEACHERS ARE DEAR... //Modern Science and Research. -2024.-T. 3.- No. 1.

15./Modern Science and Research. -2024.-T. 3.- No. 1. C. 283-288